



O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi



Toshkent davlat  
iqtisodiyot universiteti



O'zbekiston Respublikasi  
turizm va sport  
vazirligi



# “MICE TURIZMNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI VA XALQARO TAJRIBANI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH”

# MICE

Conference Uzbekistan  
TSUE November 18, 2021

"MICE TOURISM DEVELOPMENT  
TRENDS AND USE OF FOREIGN  
EXPERIENCE IN UZBEKISTAN"

«ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ MICE  
ТУРИЗМА И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ  
ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В УЗБЕКИСТАНЕ»

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI  
MATERIALLARI TO'PLAMI**

# МУНДАРИЖА

## 1-ШУЎБА

### ЎЗБЕКИСТОНДА MICE ТУРИЗМНИ ЗАМОНАВИЙ ПРИНЦИПЛАР АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ ВА БУНДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ

<i>Sharipov K. A.</i>	О‘zbekistonda turizm sohasini pandemiyadan keyin jonlantirish .....	3
<i>Eshov M. P.</i>	О‘zbekiston hududlarning turizm imkoniyatlari .....	5
<i>Abduraxmonova G. K.</i>	Turizm industriyasini malakali kadrlar bilan ta’minlash masalalari .....	9
<i>Karieva E.</i>	The application of digitalization in the sphere of tourism .....	10
<i>Махмудов Н.М., Алимова Г.А.</i>	MICE-туризм как фактор социально-экономического развития страны .....	12
<i>Abdurashidova M.T.</i>	The analysis of tendencies, problems and perspectives of the MICE tourism development in Uzbekistan.....	15
<i>Ashurova N.M., Erkinov Sh.B.</i>	Features of tourism and hospitality training in Uzbekistan: Traditional and Contemporary Approaches .....	19
<i>Eshnazarova F.</i>	О‘zbekistonda MICE turizmni rivojlantirish imkoniyatlari.....	25
<i>Abdushukurova M. Бахромов А.А., Шониёзов Ф.И</i>	Service sector development and its main tendencies .....	28
<i>Narzullayev G.S., Nuriddinova G.B</i>	MICE туризм индустриясида хизмат ташкил этувчилар ва истеъмолчилар учун суғурта хизматларининг аҳамияти.....	31
<i>Narzullayev G.S., Nuriddinova G.B</i>	Pandemiya natijasida turizm sohasida yuzaga kelgan muammolar va yechimlar .....	34
<i>Норбўтаева Г.А.</i>	“COVID — 19” пандемиясининг туризмга таъсирини юмшатиш йўллари.....	36
<i>Qayumov A.A.</i>	О‘zbekistonda MICE turizmni zamonaviy prinsiplar asosida rivojlantirishda Janubiy Koreya tajribasidan foydalanish .....	41
<i>Raximova S. M.</i>	О‘zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirishda xalqaro integratsiyalashuvning ahamiyati .....	44
<i>Safaeva S.</i>	MICE-Agencies: opportunities, priorities, challenges and prospects.....	47

MICE turizm industriyasi uchun qullaniladigan sugurtaning quyidagi turlarini taklif etish mumkin:

1. *Moлиявий кафолат (сугурта облигацияси).*
2. *Масъулиятни сугурталаш.*
3. *Автотранспорт — мулк сугуртаси.*
4. *Саёҳат сугуртаси — тиббий қутқарув.*
5. *Бошқа бизнес сугуртаси (сотиб олиш ва сотиш, асосий шахс, провидент фонди).*

Сугурта туристларнинг хавфсизлигини таъминлашнинг зарурий усули ҳисобланади. Сугурта хизматларини сотиб олиш турист учун даволаш харажатлари ҳақида ташвиш эмас. Туризм ташкилотлари ва транспорт компаниялари учун уларнинг муваффақияти учун муҳимдир. Туризмда сугurtaning ўзига хос хусусиятлари сугурта шартномаларини тузишнинг қисқалиги (қўпи билан 6 ой), эҳтимолий зарар ва сугурта қопламалари катталигининг юқори ноаниқлиги, сугурта ҳодисасининг содир бўлиш вақти ҳисобланади.

#### ***Фойдаланилган адабиётлар***

1. *Т. А. Меребашивили “Материальные и процессуальные вопросы взаимного страхования ответственности судовладельцев”, диссертация на соискание к.ю.н., Москва 2012.*

2. *Д. С. Лопаткин Развитие взаимного страхования в сфере туризма, диссертация на соискание к.э.н., Москва 2014.*

3. *Қўлдошев Қамариддин Мансурович “Ўзбекистон миллий сугурта бозорида ўзаро сугурта хизматларини ривожлантириши масалалари” “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2019 йил*

4. *lex.uz — Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари*

## **PANDEMIYA NATIJASIDA TURIZM SOHASIDA YUZAGA KELGAN MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

*Buxoro davlat universiteti  
Iqtisodiyot va turizm fakulteti  
“Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi  
Narzullayev Gulchehra Salimovna,  
Iqtisodiyot va turizm fakulteti  
“Turizm” yo‘nalishi III bosqich talabasi  
Nuriddinova Gulasal Bahridin qizi*

Butunjahon turizm va sayyohlik kengashi (WTTC) ma'lumotlariga ko'ra, "COVID-19" dunyoni zabt etishidan oldin turizm va mehmonxona sanoati global yalpi ichki mahsulotning 10 foizidan ko'prog'iga va dunyo bo'yicha har 10 ishchi o'rnidan biriga to'g'ri kelar edi. Bu soha eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, o'tgan besh yil mobaynida yaratilgan har to'rtinchi ish joyidan biriga to'g'ri keladi.

Pandemiya hammasini vaqtincha o'zgartirdi. Iqtisodiyotning bir necha bo'limlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, ayniqsa, mehmondo'stlik va turizm sanoati katta zarar ko'rdi. Butun dunyoda turizm va mehmonxona sanoati pandemiya sababli juda yomon ta'sir ostida qoldi, chunki bu biznes turining asosiy subyekti har doim odamlarning sayohati bilan bog'liqdir. Epidemiya va pandemiya tarqalishi natijasida xalqaro sayohatlarga cheklovlar qo'yildi, ommaviy axborot vositalarida kasallik haqida yoritilishi va hukumat tomonidan kasallik tarqalishining oldini olish uchun ko'rilgan choralar mehmonxonalar va restoranlarga, aviakompaniyalar sanoatiga, sayyohlik agentliklariga va boshqalarga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Butunjahon turizm va sayyohlik kengashi (WTTC) ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda 4,5 trillion dollar yo'qotildi, uning yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan hissasi 49,1 foizga, global iqtisodiyotning atigi 3,7 foizga pasayishiga to'g'ri keldi.

USC Bovard kollejining mehmonxona sanoati va turizm bo'yicha onlayn magistrlik dasturida Global mehmondo'stlik va turizm fani mutaxassisi doktor Xicham Jaddudning so'zlariga ko'ra, "COVID-19" jiddiy tanazzulga olib kelgan bo'lsa-da, mehmonxona industriyasi va sayyohlik sohasi pasayishlardan keyin qaytadan kuchaymoqda. Sohadagi o'sish har bir inqirozdan keyin oshdi", — deydi u. "Nega? Chunki turizm o'sha sekinlik vaqtidan foydalanib, qayta o'qitish, yangilash va iste'molchilarni yanada qiziqtiradigan yangi tushunchalarni ishlab chiqishdir". "Mehmonlar biznesdan nimani xohlashlarini bilishadi, bu barqaror va ekologik jihatdan mas'uliyatli bo'lishi kerak va ular faqat shu yo'ldan boradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlaydi", — deb qo'shimcha qiladi doktor Jaddud. "Bu oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish, suv iste'moli, sovun va kimyoviy vositalardan foydalanish, mahalliy mahsulot va materiallarni tanlashga to'g'ri keladi."

Agar sayohat va turizm gullashda davom etsa, barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi, bunda, albatta, mamlakat yordami kerak. Sayohat va turizm boshqa sohalarga qaraganda bir qator afzalliklarga ega:

- ish o'rinlari va boylikni yaratadi;
- shu bilan birga, u barqaror rivojlanishga hissa qo'shishi mumkin;
- ishga tushirish xarajatlari past bo'ladi;
- keng ko'lamlı hududlar va mintaqalarda mos variant;
- yaqin kelajakda o'sishda davom etishi ehtimoli bor;
- sanoat, asosan, o'z manbasini himoya qilish zarurligini biladi, mahalliy madaniyat, qurilgan va tabiiy muhit - bu resurslarga bog'liqdir.

Yana boshqa ekspertlarning aytishicha, yaqinda yuz bergan shov-shuvlarga qaramay va ko'p jihatdan bu barqarorlik, samaradorlik, innovatsiya va texnologiya sohasidagi ba'zi ustuvor vazifalarni tezlashtirmoqda.

Ayni damda masalaga ochiqcha qaraydigan bo'lsak, samarali ishlash uchun rag'bat ham, ortiqcha vaqt ham yo'q. Endi biz, albatta, belimizni mahkam bog'lab sohani rivojlantirishimiz, xarajatlarni kamaytirishimiz va turizm va mehmonxona brendlarini rivojlantirishimiz kerak. Shubhasiz, bunda texnologiya muhim bo'ladi, ammo turistik brendlar, albatta, diqqat markazida bo'lishi kerak, chunki texnologiya tanganing bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni turizm industruyasidir. Mijozlar va xizmat ko'rsatish sohasi o'rtasida sodiqlikni o'rnatish uchun biz ularning tajribasini, ularning ehtiyojlari va xohish-istaklaridan kelib chiqqan holda tushunishimiz va

yarata olishimizga ishonch hosil qilishimiz kerak. SHunda siz ko'p yillar davomida saqlanib qoladigan munosabatlarni yaratasisiz.

Xodimlar ham bu o'zgarishlarning bir qismi bo'lishi kerak. Butunjahon turizm va sayyohlik kengashi (WTTC) ta'kidlashicha, turizm industriyasi va turizm sohasi xodimlarining 68 foizi butun sohada ro'y berayotgan yangiliklarni hisobga olgan holda ularning malakasini oshirishni talab qiladi. Sektor xodimlarni uzluksiz va kontaktsiz xizmat ko'rsatish va gigiena choralari kuchaytirishga, xona tozalashning murakkab yondashuvlaridan tortib mijozlar va xodimlar xavfsizligini himoya qilishda iste'molchilar ishonchini mustahkamlaydigan boshqa protokollargacha o'rgatmoqda. Ko'p joylarda xodimlarga mehmonlarning haroratini o'lchash yoki sog'liq bilan bog'liq siyosatni bajarishdan bosh tortgan mehmonlarni boshqarishni o'rgatish kerak bo'ladi. Boshqa joylar dezinfektsiyalash jarayoniga yordam beradigan robotlar va boshqa ilg'or texnologiyalarni joriy qilmoqda va xodimlarni bulardan xabardor qilish, shuningdek, so'ngi yangiliklarni taklif qilishga undash kerak.

Yangi ish o'rinlari paydo bo'lmoqda, bularga xavfsizlik, sifat va barqarorlikni birlashtiradigan yangi lavozimlar kiradi.

Qolaversa, turizm sohasiga aloqador korxonalar va kompaniyalar faoliyatini qaytadan yo'lga qo'yganda, ular bilimli, tanqidiy fikrlaydigan, sanoatni olg'a sura oladigan xodimlarni izlaydilar.

Mehmonxona va turizm industriyasining turli sohalari talabalaridan oziq-ovqat va ichimliklar, mehmonxonalar, davlat turizm idoralari, aviakompaniyalar, kruizlar, kurortlar va shu kabi turistlar bilan ishlovchi muassasalarning talablariga javob bera oladigan kadr bo'lishlari kerakligi, bunda esa ta'lim sohasi yetakchi tashabbus ko'rsatishi talab qilinadi.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Зячинляев П. Н., Фалкович Н. С. “География международного туризма” -М. Мисл. 1972.
2. [www.bovardcollege.usc.edu](http://www.bovardcollege.usc.edu)

## **“COVID — 19” ПАНДЕМИЯСИНИНГ ТУРИЗМГА ТАЪСИРИНИ ЮМШАТИШ ЙЎЛЛАРИ**

*Норбўтаева Гулчирой Асатулло қизи,  
ТДИУ 3-босқич талабаси*

**Аннотация:** Мақолада “COVID–19” пандемияси шароитида республикада туризмни ривожлантириш йўналишларини белгилаш, бу борада хорижда амалга оширилаётган ишларни таҳлил қилиш асосида ривожланиш йўналишларини белгилаб олиш ва янги туристик хизмат турларини ишлаб чиқиш бўйича таклиф ва тавсиялар баён этилган.

**Annotation:** The scientific article contains proposals and recommendations for the development of tourism in the country in the context of the pandemic “COVID–19”, the development of new types of tourism services.